

ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNDAN FOYDALANISH TO'GRISIDA SHARTNOMA №-2

Kitob tumani

« 20 » yanvar 2022-y.

Kitob tuman Elektr ta'minoti korxonasi, (tashkilot, korxona nomi) keyingi o'rnlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. O'zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi B.Juraev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomon dan va Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi (korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rnlarda "Istemolchi" deb yuritiladi, O'zining nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi boshliq Sh.Gapparov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomon dan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

SHARTNOMANING MOHIYATI.

1.1.Ushbu shartnoma bo'yicha "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orqali elektr energiyasi yetkazib berishni o'z zimasiga oladi, "Iste'molchi" esa mazkur shartnomaning 1-ilovasida belgilangan quvvatdag'i elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan haq to'lashni o'z zimasiga oladi.

1.2.Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xarajatlariga kiritiladigan o'zgarishlar doirasida "Ta'minotchi" va "Iste'molchi"lar tomonidan o'zaro kelishilgan holda shartnoma summasiga o'zgartirishlar kiritishga haqlidirlar.

1.3. Foydalanadigan elektr energiyasining choraklik hajmi 51346 kVt. tashkil qiladi.

II.TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

2.1. "Iste'molchi"ning huquqlari:

- a) "Ta'minotchi"dan shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga yetkazib berishni;
- b) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini shartnoma bo'yicha belgilangan tartibda talab qilishni;
- v) elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1- va 2-oylarda ular tugagungacha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini "Ta'minotchi"dan talab qilishga haqlidir.
- g) elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasida zarur sifatga muvofiq bo'limgan elektr energiyasi yetkazib berilganda "Iste'molchi" o'z xohishiga ko'ra muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bo'limgan holda yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni va haqini to'lashni rad etishga
- g) "Ta'minotchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir.

2.2. "Iste'molchi"ning majburiyatları:

- a) Hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning "Ta'minotchi" bilan balans mansubligi bo'yicha bo'linish chegarasiga o'tkazilsin (iste'molning hisobga olinishi bo'linish chegarasida amalga oshirilmagan vaziyatlarda);
- b) elektr tarmoqlari, asbob uskunalarining tegishli texnik holatini va xavfsizligini ta'minlash;
- v) elektr energiyasini iste'mol qilishning o'rnatilgan tartibiga rioya qilish hamda elektr energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan avariylar, yong'inlar, elektr energiyasini hisobga olish asboblaridagi nosozliklar haqida "Ta'minotchi"ga xabar berish;
- g) reaktiv energiya ishlab chiqaruvchi uskunalarining ish rejimiga rioya qilish;
- d) iste'mol qilinadigan elektr energiyasini hisobga olish asboblari va ulardag'i tamgalarning butligi va saqlanishini ta'minlash; y) ishlatalgan elektr energiyasi uchun to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish.

2.3."Ta'minotchi"ning huquqlari:

a) "Iste'molchi"dan yetkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli haqn tulashini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob-kitoblarni amalga oshirishni;

b) shartomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan elektr energiyasini qabul qilishni asossiz rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni "Iste'molchi"dan talab qilishga haqlidir;

v) uning vakili tegishli amal qilish muddati bilan shaxsiy guvohnomasi mavjud bo'lganda elektr hisoblagichlarni ko'rib tekshiradi;

g) ma'naviy jihatdan eskirgan elektr energiyasini induksion hisobga olish priborlarini reja asosida Davlat tekshiruvidan o'tkazmaydi hamda O'zR Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi 512-sonli Qaroriga muvofiq ularni zamonaviy elektron hisoblagichlarga almashtirilishini talab qiladi.

2.4. Ta'minotchining majburiyatları;

a) qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma majburiyatlarinish o'z muddatda bajarilishini ta'minlash;

b) "Iste'molchi"ga shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga yetkazib berish;

v) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat ko'rsatgichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saqlash;

g) elektr energiyasining "Iste'molchi"ga uzlusiz ('Elektr uskunalarining qurilma koidalari' 1.2.17-bandi asosida) yetkazib berilishini ta'minlash, elektr tarmoqlarini rejali ta'mirlashda elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida "Iste'molchi"ni kamida 3 sutka oldin ogohlantirish; elektr energiyasidan asossiz uzishga yo'l qo'ymaslik va "Iste'molchi"ga elektr energiyasi berishning rejadan tashqari to'xtatilishi sabablarini xabar qilish;

j) "Iste'molchi"ga elektr hisoblagichlarining amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq almashtirish muddatlarini xabar qilish;

j) joriy etiladigan cheklashlar haqida cheklashning joriy etilish hajmi va vaqtini ko'rsatgan holda 0,5 kun oldin xabar qilish;

z) energiya tarifi o'zgarganda o'natalgan tartibda "Iste'molchi"ga bildirish.

III. ELEKTR ENERGIYASINI NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Shartnomaning tuzilgan vaqtidagi umumiy summasi 23105700 (Yigirma uch million bir yuz besh ming yetti yuz) so'mni tashkil etadi.

2022-yil jami	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
23105700	7701750	7701750	7702200									

Elektr energiyasi tarifi bir stavkali, ikki stavkali, tabakalashtirilgan stavkada belgilanadi. (zarur bo'limgani o'chiriladi)

Shartnoma bo'yicha yetkazib beriladigan elektr energiyasining tariflari shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Shartnoma tuzilgan davrda 1 kilovatt elektr energiya tarif narxi 450 so'mni tashkil etadi.

3.2. Navbatdagi oy uchun yetkazib berish nazarda tutilgan elektr energiyasi uchun to'lov 100 foiz oldindan oyning 25-sanasigacha to'lanadi.

3.3. Yetkazib berilgan elektr energiyasi uchun to'lov pul o'tkazish yo'li bilan hisob-kitob qilinadi.

3.4. "Iste'molchi"ning aybi bilan shartnomada ko'rsatilgan hajmlarga nisbatan elektr energiyasi kam iste'mol qilinganda to'langan avans mablag'lari qaytarilmaydi, balki iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.5. "Istemolchi" har oyda bo'linish chegaralarida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib oladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida o'lchov transformatorlari koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda iste'mol miqdori va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov summasi aniqlanadi. Belgilangan shakldagi hisobot "Ta'minotchi"ga oyning 25-sanasigacha muddatda yuboriladi.

3.6. Hisob-kitob elektr hisoblagichi bo'linish chegarasida o'rnatilmagan taqdirda elektr tarmogining balans bo'yicha tegishlilik chegarasidan elektr hisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'kotilishi miqdori "Iste'molchi" bilan birgalikda hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi va to'lov uchun "Iste'molchi"ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi.

3.7. Taqdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga hisob-faktura yozib beradi. Har xil tarif guruhiiga taaluqli bir necha obyektlarga ega iste'molchilar bilan hisob-kitoblar har bir tarif guruhiiga o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga har bir obyekt bo'yicha bilib ko'rsatilgan bitta hisob-faktura yozib beriladi. Qisman (to'liq hajmda emas) haq to'langanda, "Iste'molchi" to'lov hujjatida qaysi tarif guruhlari bo'yicha to'lov bиринчи navbatda amalga oshirilayoganini ko'rsatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega. Elektr energiyasi iste'moli haqida hisobot taqdim etilmaganda, elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli hajmi bo'yicha hisob-kitob oyiga keyinchalik amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilgan holda hisob-kitobni amalga oshiradi. Ortiqcha to'langan mablag'lar qaytarilmasdan avans tp'lovi tariqasida hisobga olinadi.

3.8. "Iste'molchi" tomonidan tegishli oyga yetkazib berilishi ko'zda tutilgan elektr energiyasi xajmi kiymatining 100 foizidan kam bo'limgan mikdorida oldindan to'lov amalga oshirilganda elektr energiyasi har oyda yetkazib beriladi. Yakuniy hisob-kitob esa 30 kun davomida (yakuniy hisob-kitob muddati ko'rsatilsin, lekin 30 kundan ortmasin) amalga oshiriladi. "Iste'molchi"da elektr energiyasi uchun 30 kundan ortiq (muddati yuqorida ko'rsatilgan) muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lganda, avans to'lovi tariqasida to'langan mablag'ar muddati o'tgan qarzdorlikni bartaraf etishga yo'naltiriladi va avans to'lovi tariqasida hisobga olinmaydi. "Iste'molchi" bir necha tarif guruhiiga ega bo'lsa, u oldindan to'lov hujjatida tarif guruhi buyicha elektr energiyasi summasi va yoki mikdorini kursatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

IV. ELEKTR ENERGIYASI YETKAZIB BERISH VA UNI KABUL KILIB OLİSH TARTIBI.

4.1. Shartnomada kursatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Elektr energiyasini yetkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada ko'rsatilgan muddatlar va hajmlarda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. "Ta'minotchi" buyurtmanomalarni ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

4.3. "Iste'molchi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi elektr energiyasini yetkazib berish miqdori va sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Ta'minotchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan joriy oy tamom bo'lishigacha kamida 10 kun oldin xabardor qiladi.

V. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TO'XTATISH VA UZIB QO'YISH TARTIBI

5.1. Elektr energiyasi berishdagi uzilishlarga, elektr energiyasini berishni to'xtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofiq yo'l qo'yiladi.

5.2. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmsadan, biroq unga darhol xabar

bergan holda elektr energiyasi berishni vaqtincha uzib qo'yish, to'xtatish yoki cheklas "Ta'minotchi" tizimida avariyaning oldini olish yoki uni tugatish uchun kechiktir bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarur bo'lgan hollarda yo'l qo'yiladi.

5.3. Elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimi buzilganda; shartnomada nazarda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining oldindan 100 foizini to'lamaganda; hisob-kitob oyi tamom bo'lgandan keyin 30 kun mobaynida iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lanmagan qarzi mayjud bo'lganda; "Iste'molchi" elektr energiyasi tarmog'iga o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki quvvat shartnomada kelishilgan mikdordan oshirilganda; "O'zstandart" agentligi organlari tomonidan tekshirilgan iste'mol qilinadigan energiyani hisobga olish priborlariga ega bo'lmaganda; "Ta'minotchi"ning vakili soat 8.00dan-20.00gacha bo'lgan davr mobaynida hisoblash priborlarini ko'rishga asossiz qo'yilmaganda, "Ta'minotchi" elektr energiyasi berishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega bo'ladi.

5.4. "Iste'molchi"da hisobga olish pribori bo'lmaganda; hisobga olish pribori "Iste'molchi"ning aybi bilan shikastlanganda; hisobga olish priborlarini ishga tushirish sxemasi o'zgarganda yoki hisoblagichdan tashqari nagruzka ulanganda; foydalilanigan elektr energiyasi uchun haq belgilangan muddatlarda to'lanmaganda "Iste'molchi" 3 kun oldin ogohlantirilib elektr energiyasi tarmog'idan uzib qo'yiladi;

5.5. Elektr energiyasini uzib qo'yish texnogen va avariya oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan, aloxida xavf va uzlusiz texnologiya jarayonga ega bo'lgan iste'molchilarning to'lov muddati o'tgan qarzlari vujudga kelgan taqdirda haqi to'lanmaganligi uchun elektr energiyasi berilishini cheklash, belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning texnologik va avariiali brongacha, to'liq uzib qo'yish esa faqat sud qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. "Ta'minotchi" va "Iste'molchi" tomonidan imzolangan texnologik va avariiali bronidalolatnomalari shartnomaning uzviy qismi hisoblanadi.

VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

6.1. Elektr energiyasi yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, 5 foizdan ko'p miqdorda elektr energiyasi yetkazib berilmagan hollarda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning umumiyligi summasini yetkazib berilmagan elektr energiyasi kiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi "Ta'minotchi"ni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va elektr energiyasi yetkazib berish kechiktirilganligi yoki to'liq yetkazib berilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.2. Yetkazib berilgan elektr energiyasi haqini o'z vaqtida to'lamagani uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,1 foizi (maxsus tartibga ko'ra elektr energiyasi beriladigan korxonalar uchun 0.2 foiz) miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi miqdorda penya to'laydi.

6.3. "Iste'molchi"ning taklifiga ko'ra mo'ljallanayotgan o'zgartirishlarga 10 kundan kech bo'lmasligi muddatda kiritilgan elektr energiyasining shartnomadagi hajmlarining o'zgartirilishi elektr energiyasini kam olish yoki ortiqcha olish deb hisoblanmaydi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra ularni sudgacha hal etish yuzasidan tegishli choralarni ko'radilar. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita hududiy iqtisodiy sudiga murojaat qilishga ham haqlidir.

7.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

VIII. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIK DAN OZOD ETISH

8.1. Tomonlardan biri shartnomani yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshkini, va boshqa tabiiy ofatlar) (fors-major) tufayli bajarmagan taqdirda shartnoma shartlarini vaqtincha yoki butunlay bajarmaslik bo'yicha o'zaro kelishuv asosida hal etadilar.

IX. SHARTNOMANING AMAL qilishi

9.1. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil "31"-dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Mazkur shartnomaga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) tomonlar imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.3. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.4. Taraflar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan taqdirda to'xtatiladi.

X. YAKUNIY KOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, tomonlarning har biriga bir nusxadan qoldiriladi.

X. TOMONLARNING REKVIZITLARI

"Ta'minotchi"

Kitob tumani Elektr ta'minoti
Manzili: Kitob t. B.Ipak yo'li ko'chasi
X/r- : 22636000600177786352
Bank nomi: "O'zsanoatkurilishbank"
ATBQashqadaryo mintiqaviy filiali
MFO: 00854
INN: 200 666 494
IFUT-35120



Rahbar: Rahbar

"Buyurtmachi"

Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi
Katta yo'l -123 uy, INN: 200693709
Shxr: 100022860102327073201054014
Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014
Uzbekiston Respublikasi Moliya
Vazirligi Gaznachiligi INN:201122919
x/r-23402000300100001010



Rahbar: Rahbar

Sh.X.Gapparov

2022-yil «20» Yanvardagi
№-2 sonli shartnomaga
1-sonli Ilova/

**Kitob tuman elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan 2022-yil davomida yetkazib
beriladigan elektr energiyasi quvvati bo'yicha
SPETSIFIKATSIYA**

Vaqti	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
Yanvar	kvt	17115	450	7701750
Fevral	kvt	17115	450	7701750
Mart	kvt	17116	450	7702200
1-chorak	kvt	51346	450	23105700
Aprel				
May				
Iyun				
2-chorak				
Iyul				
Avgust				
Sentyabr				
3-chorak				
Oktiyabr				
Noyabr				
Dekabr				
4-chorak				
Hammasi	kvt	51346	450	23105700

23105700(Yigirma uch million bir yuz besh ming etti yuz) so'm

“Ta'minotchi”

Kitob tuman Elektr ta'minoti

Manzili: Kitob t. B.Ipak yuli kuchasi

X/r- : 22636000600177786352

Bank nomi: “O'zsanoatkurilishbank”

ATBQashqadaryo mintiqaviy filiali

MFO: 00854

INN: 200 666 494

IFUT-35129

Rahbar:



“Buyurtmachi”

Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi

Katta yul -123 uy, INN: 200693709

Shxr: 100022860102327073201054014

Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014

O'zbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi G'aznachiligi INN:201122919

x/r-23402000300100001010



Rahbar:

 Sh.X.Gapparov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma

2. Loyihaning nomi. Elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish to'g'risida.

Kitob tuman Elektr ta'minoti korxonasi va Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi o'rtaida tuziladigan umumiy summasi 23105700 (Yigirma uch million bir yuz besh ming yetti yuz) so'mlik choraklik hajmi 51346 kVt elektr energiyasi yetkazib berish va undan foydalanish to'g'risidagi № 2-sonli shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Kitob tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan, markazga 11-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi va boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Ashurov

2022-yil 11-yanvar